

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yil yanvar-dekabr
(dastlabki ma'lumot)

E'tibor bering!

- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,8 % tashkil etdi.
- 3,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,9 birlikni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-dekabrida 3,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,8 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (36,6%), savdo sohasida (23,5%), qurilish tarmog'ida (12,2%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (6,6%), yashash va ovqatlanishda (6,1%), tashish va saqlashda (4,7%) tashkil etilgan.



**Farg'ona viloyatida
2018 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**


	O'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	20027	23304	2556
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	3292	3780	488
YaHM	%	70,6	69,8	-0,8
Sanoat	%	39,7	35,8	3,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,7	96,2	-2,5
Investitsiya	%	49,8	52,6	2,8
Qurilish	%	87,1	90,4	3,3
Savdo	%	91,1	88,4	-2,7
Xizmatlar	%	75,5	72,8	-2,7
Yuk tashish	%	90,4	95,5	5,1
Yuk aylanmasi	%	90,8	96,4	5,6
Yo'lovchi tashish	%	93,9	94,4	0,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,6	96,0	0,4
Eksport	%	45,5	48,8	3,3
Import	%	55,5	54,4	-1,1

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar**

(birlikda)


	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Farg'ona viloyati	3292	3780
Farg'ona shahar	664	676
Qo'qon shahar	466	525
Quvasoy shahar	91	157
Marg'ilon shahar	380	348
Oltiariq tumani	153	219
Qo'shtepa tumani	89	85
Bag'dod tumani	67	109
Buvayda tumani	187	192
Beshariq tumani	85	113
Quva tumani	189	168
Uchko'prik tumani	150	210
Rishton tumani	104	114
So'x tumani	49	74
Toshloq tumani	106	159
O'zbekiston tumani	141	187
Farg'ona tumani	81	128
Dang'ara tumani	122	139
Furqat tumani	88	99
Yozyovon tumani	80	78

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Farg'ona shahrida - 676 ta, Qo'qon shahrida - 525 ta, Marg'ilon shahrida - 348 ta. Oltiariq tumanida - 219 ta, Uchko'prik tumanida - 210 ta, Buvayda tumanida - 192 ta. Quvasoy shahar, O'zbekiston, Quva, Toshloq, Dang'ara, Farg'ona, Rishton, Beshariq, Bag'dod tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 187-109 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Furqat (99 ta), Qo'shtepa (85 ta), Yozyovon (78 ta) va So'x (74 ta) tumanlari tashkil etgan.

2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahriga - 17,9 %, Qo'qon shahri - 13,9 %, Marg'ilon shahri - 9,2 %, Oltiariq tumani - 5,8 %, Uchko'prik tumani - 5,6 %, Buvayda tumani - 5,1 %, O'zbekiston tumani - 4,9 %, Quva tumani - 4,4 %, Toshloq tumani - 4,2 %, Quvasoy shahar - 4,2 %, Dang'ara, Farg'ona, Rishton, Beshariq, Bag'dod, Furqat, Qo'shtepa, Yozyovon va So'x tumanlari 2-3,7 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Jami	3292	3780
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	266	248
Sanoat	1142	1155
Qurilish	253	462
Savdo	779	889
Tashish va saqlash	206	178
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	212	229
Axborot va aloqa	107	88
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	80	119
Boshqa turdagi xizmatlar	247	412

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p **sanoatda** 1155 ta, shuningdek :

Savdoda - 889 ta.;

Qurilishda - 462 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 248 ta.;


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 229 ta

Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 119 ta.;

Axborot va aloqa sohasida - 88 ta.;


Boshqa turdagi xizmatlar - 412 ta.

yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)




Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Sanoatda 30,6 foiz, Savdoda – 23,5 foiz, Qurilishda – 12,2 foiz, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 6,6 foiz, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 6,1 foiz, Tashish va saqlashda - 4,7 foiz, Axborot va aloqada - 2,3 foiz, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 3,1 foiz va Boshqa turdagi xizmatlarda – 10,9 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,9 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,9 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 35,8 %, qurilishda - 90,4 %, investitsiyada - 52,6 %, savdoda - 88,4 %, eksportda - 48,8 %, importda - 54,4 % va xizmatlar sohasidagi - 72,8 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


2018 yilning yanvar-sentabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi



Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlikning
YaHM dagi ulushining pasayishi dinamikasi
yanvar-dekabr holatiga, %



Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)



Farg'ona viloyatida 2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	35,8	90,4	73,5	54,8
<i>hududlar</i>				
Farg'ona sh	10,2	88,8	47,2	34,1
Qo'qon sh	14,5	65,8	89,3	53,6
Quvasoy sh	17,0	95,8	93,4	85,2
Marg'ilon sh	100,0	100,0	96,1	73,3
Oltiariq	100,0	100,0	94,9	41,7
Qo'shtepa	100,0	100,0	97,4	79,8
Bag'dod	44,1	94,4	96,0	37,9
Buvayda	100,0	100,0	96,1	83,3
Beshariq	43,7	91,2	94,9	22,6
Quva	69,5	100,0	93,0	75,5
Uchko'prik	92,3	88,9	96,6	56,9
Rishton	46,1	99,6	90,1	34,4
So'x	100,0	100,0	96,1	32,8
Toshloq	28,7	66,8	95,2	65,3
O'zbekiston	65,3	100,0	95,4	63,0
Farg'ona t	97,7	96,2	84,7	80,2
Dang'ara	100,0	94,2	96,1	71,1
Furqat	57,5	100,0	96,9	63,2
Yozyovon	100,0	95,4	95,7	43,9


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Marg'ilon shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara va Yozyovon tumanlari (100,0 % dan) tashkil etadi.

Qurilishda - Marg'ilon shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, Quva, So'x, O'zbekiston va Furqat tumanlarida 100 foizni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (97,4 %), Furqat (96,9 %), Uchko'prik (96,6 %), Marg'ilon shahar, Buvayda, So'x va Dang'ara tumanlari (96,1 % dan) hamda Bag'dod (96,0 %) tumani tashkil etadi.

Investitsiyada - Quvasoy shahar (85,2 %), Buvayda (83,2 %), Farg'ona (80,2 %) va Qo'shtepa (79,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Farg'ona viloyatida 2018 yil yanvar-dekabrida kichik Tadbirkorlik (biznes)ning tarmoqlar bo`yicha ulushi, (%)



**Kichik tadbirkorlik
sub'yektlari
tomonidan**

**2018 yil yanvar-dekabr
holatiga**



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqari hajmi 4596,9 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,8 %) yoki 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi;

2616,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 52,6 %) o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 154,4 % ni tashkil qildi;



2426,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 90,4 %) o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil qildi;

6637,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat hami xizmatlar hajmining 72,8 %), 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil qildi;



chakana Tovar aylanmasi hajmining 88,4 % yoki 9915,3 mlrd/ so'm (o'sish sur'ati 2,2 %) ni tashkil etdi) shakllantirildi;

249,2 mln.AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 48,8 %) miqdorida (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 20,7 mln.AQSh dollariga yoki 9,0 %ga ko'p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,6 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,4 %) ko'payishini ta'minlandi;

yo'lovchi aylanmasining esa 3,1 %ga (viloyat umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,0 %) ko'payishi ta'minlandi.




Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yozyovon, Furqat, Dang'ara, So'x, Quva, Buvayda, Bag'dod, Qo'shtepa tumanlarida – 100 %, Marg'ilon shahar – 99,9 %, Ozbekiston va Oltiariq tumanlarida – 99,7 %, Farg'ona tumanida – 99,3 %, Beshariq tumanida – 96,1 %, Uchko'prik tumanida – 90,5 %, shauningdek, Quvasoy shahrida – 59,4 %, Farg'ona shahrida – 24,6 %, eng past ko'rsatkich Qo'qon shahrida – 16,4 %, Toshloq tumanida – 5,4 %, Rishton tumani – 3,0 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabr hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Marg'ilon shahrida (373,05 mlrd.so'm), Dang'ara tumani (349,6 mlrd.so'm), Farg'ona shahar (333,5 mlrd.so'm) va Toshloq (290,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Furqat (34,0 mlrd.so'm) va So'x (37,3 mlrd.so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon.sh (70,5%), Buvayda (65,9%), Farg'ona i (64,9%), Dang'ara (60,7%), Oltiariq (58,1%), Yozyovon (52,7%) tumanlarida kuzatildi . Farg'ona (7,6%), Qo'qon (8,41%) va Quvasoy (9,7%) shaharlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona (2239,0 mlrd.so'm), Qo'qon (1311,6 mlrd.so'm), Marg'ilon (675,7 mlrd.so'm) shaharlari hamda Qo'shtepa (551,8 mlrd.so'm), Quva (548,5 mlrd.so'm) va Farg'ona (466,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati





Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona (484,9 mlrd.so'm), Qo'qon (206,6 mlrd.so'm), Quvasoy (184,9 mlrd.so'm), Marg'ilon (162,9 mlrd.so'm) shaharlari va Dang'ara (170,0 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Farg'ona (1917,9 mlrd.so'm), Qo'qon (1069,6 mlrd.so'm), Marg'ilon (883,9 mlrd.so'm) shaharlari hamda Oltiariq (238,2 mlrd.so'm), Uchko'prik (235,9 mlrd.so'm) va Farg'ona (233,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 117 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini – 38 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 32,5 %), qurilish - 13 (11,1 %), savdo - 27 (23,1 %), xizmatlar sohasi - 31 (26,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 8 (6,8 %).


Farg'ona viloyatida 2018 yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 35,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 57,9 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 55,6 % va 40,7 %, xizmatlar sohasida – 51,6 % va 38,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 27,0 % va 54,8 %, sanoatda – 42,1 % va 57,9 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 0,0 %, qurilishda – 7,7 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 12,5 %, xizmatlarda – 9,7 % va savdoda – 3,7 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 60,5 % sanoat korxonalari, 66,7 % – savdo, 77,4 % – xizmatlar, 50,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 46,2 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: J.Artikov
Tel.: (0371) 230-87-35